O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI KOGON TUMANI HOKIMINING

# QAROR

200700, Kogon shahri, Buxoro shoh ko‘chasi 16 uy. Tel: (8 365)524-61-77, faks: (8 365) 524-75-36

2023 - yil 23 - yanvar 27-2-36-Q/23 Kogon tuman hokimligi

## Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

## QAROR QILAMAN:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman qurilish bo‘limi (L.Baqoyev), tuman sanitariya epidemiologok osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (V.Qodirova), tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi (Y.G'aniyev), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (I.Batirov):

a) dafn etish joylarini saqlash qoidalarning tegishli qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

b) qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda doimiy targ‘ib qilib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror “Kogon hayoti ” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari v.v.b J.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

**Туман ҳокими** **Эсанов М.Т**